



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**«AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING
ZAMONAVIY MUAMMOLARI»
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TEZISLAR TO'PLAMI**

ABSTRACTS

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
«MODERN PROBLEMS OF APPLIED MATHEMATICS AND
INFORMATION TECHNOLOGIES»**

ТЕЗИСЫ

**МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ И
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ»**



**2021 YIL 15 APREL
BUXORO**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФАКУЛЬТЕТИ**

**АМАЛИЙ МАТЕМАТИКА ВА
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ
ЗАМОНАВИЙ МУАММОЛАРИ**

ХАЛҚАРО МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил, 15-апрель

Бухоро – 2021

ТАШКИЛИЙ ҚҮМИТА

Раис: Хамидов О.Х., БухДУ ректори, профессор
Раис ўринбосари: Қаххоров О.С., БухДУ проректори, доцент

Ташкилий қўмита аъзолари:

Жўраев А.Т.	БухДУ, проректори, доцент
Рашидов Ў.У.	БухДУ, проректори
Зарипов Г.Т.	БухДУ, доцент
Эшанкулов Х.И.	БухДУ, декан, т.ф.ф.д., (PhD)
Жалолов О.И.	БухДУ, кафедра мудири, доцент
Сайдова Н.С.	БухДУ, кафедра мудири, доцент
Жумаев Ж.	БухДУ, доцент
Болтаев Т.Б.	БухДУ, доцент
Зарипова Г.К.	БухДУ, доцент
Рустамов Ҳ.Ш.	БухДУ, доцент
Хаятов Ҳ.У.	БухДУ, катта ўқитувчи
Жўраев З.Ш.	БухДУ, катта ўқитувчи
Атаева Г.И.	БухДУ, катта ўқитувчи
Турдиева Г.С.	БухДУ, катта ўқитувчи

ДАСТУРИЙ ҚҮМИТА

Арипов М.М.	ЎзМУ, профессор
Алоев Р.Ж.	ЎзМУ, профессор
Шадиметов Ҳ.М	Тошкент давлат транспорт университети, профессор
Расулов А.С.	Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети, профессор
Равшанов Н.	ТАТУ хузуридаги АКТ илмий-инновацион марказ, лаборатория мудири, профессор
Солеев А.С.	СамДУ, профессор
Дурдиев Д.Қ.	БухДУ, профессор
Ҳаётов А.Р.	В.И.Романовский номидаги Математика институти, профессор
Мўминов Б.Б.	ТАТУ, профессор
Худойберганов М.У.	ЎзМУ, доцент
Жумаев Ж.	БухДУ, доцент
Болтаев Т.Б.	БухДУ, доцент
Эшанкулов Х.И.	БухДУ, т.ф.ф.д., (PhD)
Жалолов О.И.	БухДУ, доцент
Сайдова Н.С.	БухДУ, доцент
Расулов Т.Ҳ	БухДУ, доцент

КОНФЕРЕНЦИЯ КОТИБЛАРИ

Атамурадов Ж.Ж., Эргашев А.А. Қосимов Ф.Ф., Ҳазратов Ф.Ҳ., Зарипов Н.Н., Ибрагимов С.И., Назаров Ш.Э.

Тўплам Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартағи 78-ф-сонли фармоиши билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда халқаро ва республика миқёсидаги ўтказиладиган илмий ва илмий-техник тадбирлар режасида белгиланган тадбирларнинг бажарилиши мақсадида 2021 йил 15 апрель куни Бухоро давлат университети Ахборот технологиялари факультетида “Амалий математика ва ахборот технологияларининг замонавий муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-амали анжуман материаллари асосида тузилди.

Масъул муҳаррир:

О.И.Жалолов, доцент

Тақризчилар:

Ж.Жумаев, доцент

3. N.A. Muslimov, M.Usmonboeva, M.Mirsolieva "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" Toshkent – 2016

4. Nafasov M.M. The effectiveness of the use of mobile technologies in the educational process. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). 2020. pp. 142-166. DOI: 10.36713/epra 2013.

MATEMATIKANI JADAL RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARIDAN FOYDALANISH

Rustamov Hakim Sharipovich

*Buxoro davlat universiteti, "Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari" kafedrasi
dotsenti*

Mamlakatimizda ta'limga sifatini va samaradorligini oshirishda, umumta'limga muktabalarida matematika fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirgan holda amalga oshirish, shuningdek, dars jarayonini avtomatlashtirish, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish, elektron darsliklarni va o'quv-metodik adabiyotlarining yangi avlodini yaratish hamda ulardan to'g'ri va samarali foydalanish - hozirgi davrning dolbzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Hukumatimiz va shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonlaridan respublikamizda yoshlarni matematika faniga bo'lgan qiziqishni oshirish, iqtidorli bolalarni tanlash, ixtisoslashtirilgan muktabalar va keyinchalik oliy ta'limga muassasalariga qamrab olish ishlarini to'g'ri tashkil qilish kerakligi ta'kidlanib, bolalar uchun mazkur fandani oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o'quv-qo'llanmalarini yangi avlodini yaratish, matematik ongini, kerak bo'lsa, bog'chadan boshlab shakllantirish vazifasi qo'yilgan edi. Shunday ekan, ushbu dolzarb vazifani amalga oshirish uchun o'quvchilarni o'ziga jalg qila oladigan, matematikaning sir-asrorlarini uchqur va chuqur o'rgatadigan, har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini aniqlab va variativlik asosida ularni mantiqiy fikrlashini oshiruvchi hamda matematik tafakkurini charxlaydigan electron ta'limga resurslaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatning barcha jahbalariga "elektron" atamasining kirib kelishi ya'ni, elektron pochta, elektron pul, elektron imzo, elektron hujjat almashinuvi va hokazo bo'lgani kabi ta'limga sohasida ham elektron darslik, elektron kundalik, elektron jurnal, elektron ta'limga, elektron ta'limga resurslaridan keng foydalanish- modernizatsiyalashgan ta'limga mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Dastlab elektron ta'limga ya'ni "e-learning" atamasi 1999 yil oktyabr oyida Los-Anjelesda bo'lib o'tgan YUNESKO ning "CBT Systems" seminarida ishlatalgan bo'lib, YUNESKO ning ta'kidlashicha: "elektron ta'limga - Internet va multimediali didaktik dasturiy vositalar orqali o'rganish" demakdir. Haqiqatdan ham, elektron ta'limga yoki "e-learning" - bu Internetdan yoki multimediali interfaol didaktik-dasturiy vositalardan foydalangan holda o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan ta'limgagi keng ko'lamli "elektron ta'limga resurslari" hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari 2020 yil 31-may kuni olimlar bilan uchrashuvda quyidagi fikrni ta'kidlagan edilar- "Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergen xorijiy metodika asosida ta'limga dasturlari yaratib, o'quvchilarni qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo'lishi kerakki, u bolalarda matematikaga muhabbat uyg'otsin. Buning uchun o'quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o'ziga kerakligini anglashi zarur. Yoshlar imtihondan o'tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo'lish uchun matematikani o'qishi lozim".

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, masalan Janubiy Koreya va Finlandiya tajribasidan kelib chiqqan holda o'quvchilarni matematik fikrlashini rivojlantirish matematikani o'rgatishda haqiqatdan ham oliygohlarga kirish uchun emas balki, oddiy ishchi bo'lsada matematikaning sir-asrorlaridan xabardor bo'lmog'i va uni amalyotda samarali qo'llay olmog'i darkor. Masalan: Oddiy duradgor yoki traktorchi bo'lsada nafaqat arifmetikani bilmog'i balki amalda unidan oqilona foydalana olmog'i lozim. Yurtboshimiz

ta'kidlaganlaridek, -“Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi», - dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Donolar bisotidan aytilishicha matematika barcha fanlarning shohi va xizmatkoridir. Shunday ekan, matematika fanining sir-asrorlarini o'rgatish, o'quvchining matematik tafakkurini shakllantirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda matematika faniga bo'lган qiziqishini oshirish barobarida nafaqat matematika fanini balki, barcha fanlarni o'zlashtirishga zamin yaratishda elektron ta'lim resurslarining o'mni va ahamyati beqiyosdir.

Mamlakatimizda hozirgi ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ishlar albatta tafsinga sazovor desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, o'qituvchilarining mehnat haqlarini oshirilishi, o'qituvchilarini ortiqcha ishlarga jalb qilinmasligi hamda ularning bilim darajalarini nazorat qilgan holda toifalar berilishi fikrimizning yorqin dalilidir. Joriy yilda maktab o'quvchilarimizni PISA testidan o'tkazish orqali ularning bilim darajalari aniqlanadi. Bunday mas'ulyatlari ishni amalga oshirishda o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirishda, ijodiy tafakkurini rivojlantirishda va fanlarga bo'lган qiziqishlarini oshirishda hamda mustaqil ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol multimediali va didaktik-dasturiy vositalardan keng foydalanishga katta e'tibor bermog'imiz lozim.

Haqiqatdan ham, yurtboshimiz aytganlaridek ...“matematika fanining tamal toshini Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug' bobolarimiz qo'yan. Bu bizning qonimizda bor. Lekin oxirgi yigirma yilda matematikadan o'quvchilarimizning bilim darjasini pasayib ketdi. Chunki o'qituvchilarga kerakli e'tibor, munosib oylik berolmadik, pirovard maqsad qo'ya olmadik. Buning oqibati hozir ko'pdan-ko'p sohalarda sezilyapti. Bugun bu fanni rivojlantirishdan maqsadimiz – matematika bo'yicha raqobat muhitini yaratish, sanoat, muhandislik yo'nalishlari bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, – dedi

Ayniqsa, matematikani o'rgatishda kompyuterning elektron ta'lim resurslarining imkoniyatlaridan to'g'ri va samarali foydalanish, matematikani o'rgatuvchi intellektual tizimlar va pedagogik dasturiy vositalar yaratish hamda dars jarayonida qo'llash muhim ahamyat kasb etadi. Bundan tashqari o'quvchilarini mustaqil ravishda matematikani o'rganishida, o'quvchilar o'rtasida do'stona raqobat muhitini yaratishda eng muhammi o'quvchilarining ichki tuyg'usini shakllantirishda elektron ta'lim resurslarining o'rgatuvchi, mashq qildiruvchi va nazorat qiluvchi turlari ta'lim samaradorligini va sifatini ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi.

Haqiqatdan ham, matematikani o'qitish, avvalo o'qituvchidan bilim, yuksak mahorat, fidoyilik, har bir o'quvchi uchun individual yondashuv va mashaqqat talab qiladi.

Shunday ekan, yuqorida ta'kidlanganlarni risoladagidek amalga oshirishni, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashni, o'sib kelayotgan barkamol avlodni intellektual bilimini rivojlantirishni – zamonaviy axborot texnologiyalarisiz va elektron ta'lim resurslarisiz amalga oshirishni tasavvur qilish juda mushkul ishdir.

Matematikani o'rgatuvchi elektron ta'lim resurslari o'quvchilarga misol va masalalarni cheklanmagan miqdorda tuzib, ularning bajarilishini o'qituvchidek “jonli tarzda tushuntirib”, yechib ko'rsatadi. Misol va masalalarning qiyinlik darjasini kompyuter tomonidan aniqlanib o'quvchining individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari o'quvchi tomonidan kiritilgan misol va masalalar ham kompyuter tomonidan “jonli tarzda tushuntirilib” dinamik animatsiyalar asosida yechib ko'rsatiladi.

Albatta, har bir o'quvchi matematika fanini risoladagidek o'rganishi natijasida ta'lim samaradorligi oshadi. Pirivardida esa, jamiyat taraqqiyoti, xalq faravonligi va mamlakatning jahon hamjamiyatdagagi o'mni mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustamov Kh.Sh. The use of didactic-software crosswords in mathematics lessons//European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – Great Britain, 2020. -Vol. 8 No. 3, 2020 Part II. ISSN 2056-5852 – P.87 - 93.

- Рустамов Ҳ.Ш. Математика дарсларида интерфаол дидактик-дастурий кроссвордлардан фойдаланиш //Innovations and modern pedagogical technologies in the education system. – Prague, 2020.Б-150-154.
- Рустамов Ҳ.Ш. Математикани ўқитишида дидактик-дастурий ва мультимедиали интерфаол иловалардан фойдаланиш// Физика, математика ва информатика. . –Тошкент, 2019. - №5. – Б.64 -70.
- Рустамов Ҳ.Ш. Бошланғич синфларда математикани ўқитишида дидактик-дастурий воситалардан фойдаланиш// Физика, математика ва информатика. . –Тошкент, 2019. - №2. – Б.105 -110.

ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ЯХШИЛАШДА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ЎРНИ

Атакулов Мавлонбек Саиткулович

*Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат техника
университети Термиз филиали асистент ўқитувчisi*

Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури”да мамлакатимизнинг барча таълим тизимлари зиммасига муҳим қатор вазифалар қўйилди. Ҳусусан, модул тизимидан фойдаланган ҳолда ўқитиши сифатини янада жадаллаштириш, замонавий ахборот тизимларидан унумли фойдаланиш, янги педагогик жараёнлар ҳамда масофавий таълим тизими технология ва воситалари сифатини ошириш каби муҳим вазифалар қўйилди.

Юқори малакали педагог кадрларга бўлган талаблар ортиб бораётган ҳозирги шароитда баркамол ёш авладларни неча йиллар давомида шаклланиб келаётган умуминсоний қадриятлар ва маънавий қадриятлар руҳида тарбиялаш қобилиятига эга бўлган, фаннинг чуқур фундаментал асосларини пухта эгаллаган, замонавий педагогик ва ахборот технологияларини аъло ўзлаштириб олган педагог кадрларни шакллантириш замон талаби бўлмоқда.

Фан, таълим ва техника шиддат билан ривожланаётган бугунги кунда илмий асослар ва билимлар, тушунчалар, назарий қарашлар ва ахборотлар хажми нисбатан ортиб бормоқда. Бу бир жиҳатдан илм-фаннынг янги тармоқлари ва йўналишларини шаклланишини таъминлаётган бўлса, иккинчи жиҳатдан фанлар ўртасидаги мавжуд бўлган маълум тўсиқлар ёки чегараларни олиб, интеграция жараёнини тезлаштиришни таълаб этади. Таълим сифатини яхшилашда ахборот технологияларини ўрни ҳозирги замон талабларидан келиб чиқсан ҳолда муҳимдир.

Замонавий ахборот технологияларининг таълим жараёнига жорий этилиши қўйидаги натижаларни ўзида акс эттиради.

- талаба ва ўкувчиларни касбий билим эгаллашига қўмаклашади.
- ўрганилаётган фан предмети ва жараёнларни моделлаштириш орқали фан соҳасини чуқур ўзлаштиришга ёрдам беради.
- ўкув фаолиятининг хилма - ҳил ташкил этилиши ҳисобига талабанинг мустакил фаолияти соҳасининг кенгайишига ҳизмат қиласи.
- интерактив мулокот имкониятларининг жорий этилиши асосида ўқитиши жараёнини индивидуаллаштириш ва дифференциялаштиришга асос бўлади.
- сунъий интеллект тизими имкониятларидан фойдаланиш орқали талабанинг ўкув материалларини ўзлаштириш стратегиясини эгаллашига қўмак беради.
- Ахборот жамияти аъзоси сифатида унда ахборот маъданияти шаклланади.
- Ўрганилаётган жараён ва ходисаларни компьютер технологиялари воситасида тақдим этиш, талабалардан фан асосларига қизиқиши ва фаолликни оширишга олиб келиши билан муҳим аҳамият касб этади.

Ҳозир кунда ўкув жараёнини ташкил этишда замонавий ахборот технологиялари, педагогик технологиялар ва таълим платформалари орқали ташкил этилаётганли ҳам

Botirova N. SMART EDUCATION ta'limi texnologiyasi va aktning ahamiyati	611
Ниязхонова Б.Э., Абдийҳамидова С. Физика фанини ўқитиша ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш учун актдан фойдаланиш.	613
Нарзуллаев М.Н. Нарзуллаева З.М. Организация эффективного использования интернет-сми в астрономическом образовании.	615
Абдурахмонов О.Р., Турсунов З.З. Исследование автоматизации процесса измельчения кусковых материалов	617
Karimov Q.M. Informatikaga oid fanlarni o'qitishda didaktik prinsiplardan foydalanish	618
Арзиева Ж.Т., Сейтиязов Н.Б. Графические и статистические тестирование получаемых псевдослучайных чисел в системах аутентификации	620
Ismoilova M.N., Abdullayev A.N. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim mutaxassislik fanlarini o'qitishda aktdan foydalanish.....	621
Мухлисов С.С., Сулайманова Д. Использование виртуальной онлайн-доски на уроке математики.....	623
Cut Maisyarah Karyati, Kh.Rustamov. The role of requirements in the creation of e-learning resources.....	625
Рустамов Х., Ходжиев Н., Шарипов Ш. Психолого-педагогические особенности активизации познавательной деятельности учащихся с использованием электронным образовательным ресурсом	629
Razzakov Sh.I., Narziev U.Z. Masofaviy ta'limda fan resurslari hajmini qisqartirish usullari	631
Rustamov H.Sh. Matematikani jadal rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish ...	633
Атакулов М.С. Таълим сифатини яхшилашда ахборот технологияларининг ўрни	635
Muxtorova N.I., Jalolova N.B. Kompyuter texnologiyalarini matematika darslarida qo'llashning ahamiyati	636
Atamuradov J.J. Masofaviy ta'limda o'qituvchining roli	637
Jumayev J., Xalikova U.M. Maktabgacha ta'limda axborot texnologiyalarining qo'llanishi..	639
Жўраев И.И. Ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг афзалликлари ва муаммолари	641